

MAKTABGACHA TA'LIM- TARBIYALANUVCHILARIDA IQTISODIY
TUSHUNCHALARNI SHAKILANTIRISHNING INNOVATSION

USULLARI.

SHahrisabz Davlat Pedagogika instituti

talabasi **Islomov Shohnur**

Ilmiy rahbar :**Hamroyeva Xolida**

Annotatsiya: Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tushunchalar va innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning, nazariy asoslari va innavatsiyon texnologiyalarni olib borish. Maktabgacha ta'limga olib kirish afzaliklari va metodlari.

Tayanch so'zlar: Iqtisod, bilim, tarbiya, inson, mehnat, innovatsiya, texnologiya.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ilk iqtisodiy bilimlarni berish asosan o'rta guruhdan boshlab tashkil etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilim berish, ularning mantiqiy fikrlash doiralarini o'stirish, ishbilarmonlik, tejamkorlik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

O'rta guruh bolalariga ilk iqtisodiy tushunchalarni berish quyidagi bo'limlar:

Inson va uning asosiy ehtiyojlari,

inson va iqtisod; Pul, maxsulotlarini sotib olish va ayirboshlash

asosida tashkil etiladi. Inson va uning ehtiyojlari haqida tushuncha berishda, inson uchun zarur bo'lgan hayotiy ehtiyojlar (kiyim- kechak, oziq - ovqat va hokazo) ,tejamkorlik haqida (suvni ,vaqtni tejash), maktabgacha ta'lim muassasalaridagi va uydagi jihozlardan (o'yinchoq kitob va hokazo) tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish vaqt haqida ilk tushuncha berish orqali vaqtni tejash haqida tushunchalar beriladi.

Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida "Non va suv biz uchun aziz " , "Uy-ro'zg'or buyumlari " , "Oshxona buyumlari" kabi mavzularda suhbatlar o'tkaziladi .

Inson va iqtisod haqida tushuncha berishda mehnat inson hayotidagi asosiy faoliyat ekanligi, kattalar mehnatiga hurmat va qiziqish hissini tarbiyalash, o'zbek xalqining milliy hunarmandchiligi, i duradgor mehnati, dehqon mehnati haqida qisqacha ma'lumot beradi. Bolalar o'z tarbiyachisi,

enaga ,oshpaz , haydovchi, bog'bon mehnati bilan tanishtirish jarayonida ularda inson va uning mehnatiga hurmat hissi shakllantiriladi .

Mehnat qurollariga ehtiyot bo'lib tejamkorona munosabatda bo'lishga tarbiyalanadi. .Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida

Quyidagi:

”Duradgor mehnatini kuzatish “,”Dehqonlar mehnati haqida “,”Quruvchi” mehnati haqida suhbatlar o'tkaziladi.

Pul-mahsulotlarini sotib olish va ayirboshlash bo'limida bolalarga bozor, uning turlari, sotuvchi, xaridor, bozorda oldi-sotdi ishlarini amalga oshiruvchi vosita -Pul to'g'risida tushuncha beriladi.

Inson va iqtisodiyot bu -Inson shaxsi, sog'liqni saqlash, kattalar mehnati, ularning dam olishlari uchun davlatimiz tomonidan qilinayotgan g'amxo'rliklari haqida tushuncha beriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi shifokori va hamshirasi mehnati bilan tanishtirib, bolalar sog'lig'i uchun barcha sharoitlar mavjudligi, fitobarlar tashkil etilganligi, bassen va sog'lomlashtiruvchi jihozlarning bolalar uchun, ularning sog'lom o'sishlari uchun yaratilganligi tushuntiriladi.

Ta'lim sohasidagi islohotlar mazmunida yosh avlodga ilmiy bilimlarni berish ularda keng dunyo qarashni shakllantirish va ma'naviy- ahloqiy sifatlarni tarbiyalashga nisbatan innovatsion uondasguvni qaror toptirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim va ma'naviy-marifiy ishlarni yuqori samaradorlikka erishish shartlaridan biri - bu ta'lim muassasalari foliyatiga innovatsion texnologiyalarni olib kirish va uni ta'lim jarayoniga olib kirish balki tarbiya jarayoniga olib kirish sanaladi.

Bularning hammasi Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev yaqin besh yildagi maktabgacha ta'lim- tarbiya sohasini isloh qilishga oid bir qator hujjatlarni tasdiqlab, uni amaliyotga tadbiiq berganliklaridan dalolat beradi. Keltirilgan fikrlarga asoslangan holda maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi innavotsion texnologiyalarni olib kirish va uni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga tadbiiq etish masalasi hozirgi kunda ham dolzarb masalalardan hisoblanadi.

“Innovatsiya” tushunchasining lug'aviy ma'nosi “ yangilik kiritish “ bo'lib, mantiqan “tizim ichki tuzilishini o'zgartirish” sifatida e'tirof etiladi. Innovatsiya amaliyot nazariyasining muhim qismi bo'lib, ijtimoiy- madaniy

ob'yeht sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan tizimidir. Yangi ijtimoiy munosabatlarning innovatsion xarakterdagi ta'lim dasturlarida aks etishi pedagoglar, o'quvchilar hamda ularning ota-onalari o'rtasida o'zaro hamkorlikning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi.

So'nggi yillarda pedagogik jamoatchilik orasida ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish vazifasini ijtimoiy institutlar

tomonidan amalga oshirishi maqsadga muvofiqligini ifodalovchi qarashlar shakllanadi. Bu esa ta'lim tizimining davlat organlari bilan ijtimoiy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asosida boshqarilishini anglatadi. Mazkur hamkorlik ijtimoiy tashkilotlarga davlat organlari bilan birgalikda ta'lim muassasalari faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi.

Bunday imkoniyat ta'lim loyihalarini qo'llab- quvvatlash ta'lim muassasalari uchun ajratilayotgan budget taqsimoti, ularning strategiyasini belgilash va ta'lim jarayoniga nisbatan ijtimoiy tasirning yuzaga kelishi mumkinligini anglatadi. "Innovatsiya " va innovatsion faoliyat tadbiriq etiladi. Shu jihatdan qaraganda har qanday ilmiy- texnikaviy faoliyatni innovatsiya sifatida e'tirof etish mumkin.

Jumladan "Innovatsion faoliyatni ilmiy ijodiyot sohasidagi faoliyatga o'xshatib bo'lmaydi. Chunki har qanday ilmiy -texnikaviy faoliyat o'z tartibiga ko'ra innovatsion hisoblanadi. Aytish mumkinki, barcha yangilik ham ilg'or xususiyatga ega bo'lmaydi.

Ilg'orlik yangiliklarning samaradorligi ifoda etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda innovatsion tushunchalar berilib boriladi. Respublikamiz iqtisodiy mustaqilligini, uning ilmiy salohiyatini saqlab qolish, mustaqil ongli ravishda shaxsiy va ijtimoiy hayotda mas'uliyatli qaror qabul qila oladigan erkin shaxsni tarbiyalamasdan amalga oshirib bo'lmaydi.

Bugungi kunda siyosat va ta'limning o'zaro aloqasi hamda hamma uchun ochiq. Har qanday taraqqiy jamiyatning iqtisodiy, intellektual madaniy, ma'naviy ,

axloqiy salohiyati uning mazmuni va yo'nalishiga bog'liq.

Bozor iqtisodiyotini shakllanishi va zamonaviy o'zbek jamiyatining rivojlanishi sharoitida yosh avlodning iqtisodiy tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy yangi iqtisodiy sharoitlar maktabgacha yoshdagi mustaqil, faol , mehnatkash shaxslarni tarbiyalash zarurligini belgilaydi.

VOLUME-2, ISSUE-2

Xulosa: Mazkur iqtisodiy ta'lim darajasini maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda shakllantirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin : Interviyular, shaxsiy suhbatlar, kuzatish ularga odamlarga pul nima uchun kerak, reklama nima uchun qilinadi, nega kitob ,o'yinchoq buyumlar kerak kabii savollar bilan murojat qilish orqali .Bolani iqtisodiy tafakkurini aniqlash mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki , bolaning kelajak hayotidagi faolligi ularning farovon va to'kin yashashi haqidagi tasavvurlari, bilim , malaka va ko'nikmalari kichik yoshdan shakllantirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mavlonov A. Barkamol inson tarbiyasi.-T.O'qituvchi, 1995.
- 2.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi .Nasaf, 2000
- 3.Internet ma'lumotlari.